FARG‘ONA VODIYSIDA SUV TA’MINOTI VA SUV XAVFSIZLIGI: TARIXIY TAJRIBA VA ZAMONAVIY ISLOHOTLAR

Raxmonov G‘olib Axmadjonovich
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi
golibrahmonov8@gmail.com +998905823566

Annotatsiya:
Maqolada Farg‘ona vodiysida suv xavfsizligi borasidagi yondashuvlar va uning ilmiy-nazariy jihatlari, suv resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar, suv xavfsizligi xalqaro suv hamjamiyatining faoliyati masalalari ilmiy adabiyotlardagi materiallar yordamida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *Farg‘ona vodiysi, suv xavfsizligi, xalqaro suv hamjamiyati, suv infratuzilmasi, suv resurslari, suv ta'minoti.*

KIRISH

XX asr oxiri - XXI asr boshlarida suv infratuzilmasi xavfsizligi va suv ta’minoti xavfsizligi, ayniqsa, suv bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar muhim mavzularga aylandi. Bugungi kunda suv xavfsizligi xalqaro suv hamjamiyatining kun tartibida yanada ustunlik qilmoqda va uchta xalqaro tashkilot (Global suv hamkorligi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Xalqaro suv boshqaruvi instituti) bu atamani yetakchi asos sifatida qabul qilgan. Hozirgi suv xavfsizligi ta'riflari o‘zgaruvchan muhitda foydalanuvchilar va ekotizimning asosiy talablari yoki maqsadlariga ishora qiladi [1]. Suv xavfsizligiga global e'tibor qaratishdan tashqari, suv, energiya va oziq-ovqat aloqalari suv xavfsizligi maqsadlari atrofida quriladi [2]. Ushbu maqsadlarga alohida e'tibor qaratilib, suv ta'minoti xavfsizligini ta'minlashning to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita suv xavfsizligi choralari kabi an'anaviy yondashuvlar chiqarib tashlandi. Ushbu ma’lumotni keltirishning boisi o‘tmishda Farg‘ona vodiysida ko‘plab qishloqlarda aynan suv bilan bog‘liq muammolar mavjud bo‘lgan, yillar davomida ular o‘z yechimini topmagan.

Suv resurslariga o‘tmishda ajdodlar quyidagicha munosabatda bo‘lishgan: “Turkistonning yeri - bizning tanimiz, suvi - qonimizdir... Kimda-kim bu ikkisiga tegadurg‘on bo‘lsa, bizning tanimiz bilan qonimizga tuqulg‘on bo‘lajak”. Ushbu so‘zlar Turkiston musulmonlarining favqulodda IV qurultoyida aytilgan edi [3]. Chindan ham qadimdan Markaziy Osiyoda suv aholi tasavvarida xuddi tomirida oqayotgan qon kabi muqaddas sanalgan. “Yer - xazina, suv – gavhar” , “Suv tugagan yerda - zamin tugaydi”, “Suvsiz hayot yo‘q”, degan xalq maqollari xalqimizning suvga bo‘lgan mehru oqibatini isbotlaydi.

Suv borasidagi bunday muammolarning yechimsiz qolishi sababidan XX asr boshida Turkiston jadidlarining mamlakatni rivojlantirish yuzasidan yaratgan dasturining 13-bandi aynan suv masalasiga alohida e’tibor qaratilgan edi: “Turkistonda yer masalasining asosi - suv. Shuning uchun millatning barcha kuchi xalqni suv bilan ta’minlab, turmushni yaxshilashga sarflanajak. Suv idorasi ishlarini tartibga solishga katta ahamiyat berilajak” [4]. Sovet Ittifoqidan mustaqillikka erishgandan so‘ng, imkon

qadar barcha davlatlar bir-biridan mustaqil bo‘lish uchun echim topishga harakat qildilar va hozir ham harakat qilmoqdalar. Ushbu yechimlar joriy foydalanilmayotgan qish oqimini qo‘lga kiritish yoki muqobil suv manbalarini qidirish uchun kirish infratuzilmasini takrorlash orqali asoslangan. Duxovniy ta’kidlaganidek, “O‘zbekiston qo‘shimcha suvga bo‘lgan talabini Andijon suv omboridan chiqarish va qisman oqim ichidagi suv omborlarini qurish orqali deyarli to‘liq qondirishga intilmoqda” [5].

1993 yilda Respublika Xalq xo‘jaligining barcha sohalarida, shu jumladan suv xo‘jaligida ham, neft mustaqilligiga erishish uchun birinchi Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi bilan qattiq sa’yi-harakatlar boshlandi. 1997 yil fevralida O‘zbekiston Respublikasi melioratsiya va suv xo‘jaligi hamda Qishloq xo‘jaligi Vazirliklari tugatilib ular asosida O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi Vazirligi tashkil etildi. Bu o‘zgarishlar davomida Farg‘ona viloyat Qishloq va suv xo‘jaligi boshqarmasi tuzildi. Bugungi kunda suv muammosi nafaqat O‘zbekiston Respublikasi, balki butun dunyo miqyosidagi global muammo hisoblanadi. Suv muammosini bartaraf etish va undan oqilona foydalanishni joriy etish hozirgi kunning eng asosiy vazifalardan biridir. Buning uchun birinchidan, suvdan oqilona va to‘g‘ri foydalanishni joriy etish; ikkinchidan, mamlakatlararo-transchegaraviy suvdan foydalanishni muvofiqlashtirish (chunki ko‘plab davlatlarda foydalanilayotgan suvlarning-daryolarning asosiy manbai boshqa mamlakatlarda joylashgan va daryoning yukori okimida suvdan foydalanishda o‘zgartirishlar kilinishi, daryoning quyi okimida joylashgan suvdan foydalanuvchilar uchun qiyinchiliklar tug‘diradi. “Transchegaraviy daryolarda har qanday gidro-texnik inshoot qurishda, mamlakat, bu borada qo‘shni davlatlar bilan kelishishi va xalqaro xuquq normalariga kat’iy rioya kilishi zarur”) va imzolangan shartnoma-kelishuvlarga qat’iyan rioya etish; uchinchidan, suv havzalarini ekologik muhofaza qilish va ifloslantirmaslik hamda sodir etilgan jinoyatlarga jazo choralarini kuchaytirish lozim.

Ko‘plab olib borilgan tadqiqotlar natijalariga qaraganda, global iqlim o‘zgarishi natijasida so‘nggi 50–60-yil davomida Markaziy Osiyodagi yuksak tog‘liklardagi muzliklar maydoni taxminan 30 foizga qisqargan. Prognozlarga ko‘ra, 2050-yilga borib chuchuk suv tanqisligi mintaqada yalpi ichki mahsulotning 11 foizga pasayishiga olib kelishi mumkin. Global iqlim o‘zgarishi, O‘zbekistonda aholi soni o‘sib borayotgani, iqtisodiyotning turli tarmoqlari kuzatilayotgan jadal rivojlanish va ulardagi suvga bo‘lgan talab o‘sishi tufayli suv resurslari taqchilligi yildan yilga ortib bormoqda. O‘zbekistonda mavjud chuchuk suv hajmi qisqarishi tufayli suv tanqisligi va qurg‘oqchilik xavfi sezilarli darajada oshmoqda.

Shu bois kelgusi yillarda sug‘orish kanallarini betonlash, suv tejovchi texnologiyalar o‘rnatish ishlariga ajratiladigan mablag‘ ko‘paytirib boriladi. Jumladan, 2024 - yilda markazlashgan investisiya hisobidan 1,7 trillion so‘mlik va xalqaro moliya tashkilotlaridan 300 million dollarlik suv infratuzilmasi loyihalari amalaga oshiriladi[6]. Davlatimiz rahbari bu masalaga kengroq to‘xtalib, sug‘orish kanallarini betonlash bo‘yicha uch yillik dastur qabul qilinishini ta’kidlab o‘tdilar.

Xulosa sifatida aytish kerakki, u yoki bu tuman yoki regiondagi tabiat muvozanatini buzgan, yerning unumini pasaytirgan, sizot suvlari sathi ko‘payishiga olib kelgan suv omborlari ishini to‘xtatish maqsadga muvofiqdir. Ularda to‘plangan suv esa daryo o‘zanlariga ochib yubornlishi, ayni paytda suv omborlari tagida cho‘kib qolgan

loyqalardan qanday foydalanish tadbirlari ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi zarur. Suv nihoyatda taqchil bo‘ladigan hududlardan boshqa joylardagi barcha suv omborlari esa vaqti-vaqti bilan ishlatilishi zarur. Ya’ni faqat sel keladigan qish paytlarida suv to‘plash, bahor va yozda, dalalarni yuvish paytida esa aylanma kanallar orqali, ularning suvini to‘plagan loyqalari bilan birgalikda dalalarga oqizish zarur.

FOYLALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. United Nations University. *Water Security and the Global Water Agenda, a UN-Water Analytical Brief;* United Nations University: Hamilton, PA, USA, 2013.

2. Hoff, H. Understanding the Nexus. In Proceedings of the Bonn Conference: The Water, Energy and Food Security Nexus, Stockholm, Sweden, 16–18 November 2011.

3. Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихидан материаллар. –Андижон.: “Андижон нашриёт матбаа”, 2004. -Б.69.

4. Ўша асар. -Б.340.

5. Dukhovny, V.A. Water and globalization: Case study of Central Asia. *Irrigation. Drainage.* 2007, 56, P.489–507.

6. https://sverenins.uz/. 2024-yil uchun davlat budjetining asosiy yo‘nalishlari ko‘rib chiqildi